



## QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar-avgust oylari*



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan. 2023- yil 1- sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 7389 tani tashkil etib, 2022- yil 1-sentabrga nisbatan 1193 taga kamaygan (86,1 % ni tashkil etdi). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 17 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7372 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **12448,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **104,6 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **602,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **100,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **10191,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,8 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1654,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,9 %**) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>12448,3</b>	<b>104,6</b>	<b>602,0</b>	<b>100,4</b>	<b>10191,4</b>	<b>104,8</b>
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	2745,1	100,3	320,5	86,7	2296,9	101,9
Shahrisabz	1147,3	105,4	18,0	66,7	1085,6	106,3
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	482,1	104,8	9,7	140,7	380,9	104,2
Dehqonobod	474,7	101,8	4,0	82,8	419,2	101,8
Qamashi	783,9	105,4	9,5	94,3	656,1	105,7
Qarshi	395,2	104,6	8,8	53,2	356,6	106,4
Koson	1252,9	108,5	59,8	174,2	1137,2	106,2
Kitob	781,1	105,0	10,3	40,5	655,1	107,7
Mirishkor	422,8	103,3	3,8	89,0	407,3	103,4
Muborak	391,7	107,3	33,8	128,6	284,0	106,1
Nishon	447,2	104,8	4,4	78,7	357,0	105,5
Kasbi	575,3	107,4	20,9	340,1	507,4	104,7
Ko'kdala	309,6	104,6	12,0	-	209,9	100,6
Chiroqchi	1157,1	104,7	33,7	85,7	549,9	107,7
Shahrisabz	465,1	112,9	44,4	325,9	367,5	105,9
Yakkabog'	617,2	106,4	8,4	87,6	520,8	107,2

2023- yilning yanvar-avgust oylarida 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (**112,9 %**), Koson (**108,5 %**), Kasbi (**107,4 %**), Muborak (**107,3 %**), Yakkabog' (**106,4 %**) va Qamashi (**105,4 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.




## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-avgust, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlarining eng past ko'rsatkichi 2020- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2019- yilning mos davriga nisbatan **96,3 %** ni yoki **6955,0** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati  
oylar kesimida (foizda)  
(2023- yil yanvar-avgust oylari)



2023- yilning yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati **104,6 %** ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni, Qarshi shahri **22,1 %** bilan **2745,1 mlrd. so'mni** tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Ko'kdala tumani **2,5 %** bilan **309,6 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **10191,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **104,8** %ga ko'paydi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **81,9** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **0,4** % ga ko'paydi va **602,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **4,8** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Mirishkor (**96,3 %**) Shahrisabz shahar (**94,6 %**), Koson (**90,8 %**), yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **4,8 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahri (**11,7 %**), Shahrisabz (**9,5 %**), Muborak (**8,6 %**), Koson (**4,8 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>3 557,7</b>	<b>102,3</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	9 439,8	98,1
Shahrisabz	7 890,5	103,7
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2 207,7	102,4
Dehqonobod	3 023,4	99,7
Qamashi	2 719,9	103,1
Qarshi	1 480,5	102,2
Koson	4 090,4	105,9
Kitob	2 815,8	103,0
Mirishkor	3 321,4	101,1
Muborak	4 252,5	105,7
Nishon	2 735,2	102,6
Kasbi	2 748,5	105,1
Ko'kdala	1 678,4	100,9
Chiroqchi	4 413,1	102,4
Shahrisabz	2 007,5	111,2
Yakkabog'	2 220,2	104,1

2023- yilning yanvar-avgust oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3557,7** ming so'mni (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **102,3** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Qarshi shahri (**9439,8** ming so'm), Shahrisabz shahri (**7890,5** ming so'm) va Chiroqchi tumani (**4413,1** ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1654,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **104,9 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **843,7** mlrd. so'mni (**112,7 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **811,2** mlrd. so'mni tashkil etdi (**97,8 %**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasida yuqori hajmli hududlar (mlrd. so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shahobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar– avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>1654,9</b>	<b>104,9</b>	<b>843,7</b>	<b>112,7</b>	<b>811,2</b>	<b>97,8</b>

### shaharlar:

Qarshi	127,7	113,1	127,7	113,1	-	-
Shahrisabz	43,6	109,4	43,6	109,3	-	-

### tumanlar:

G'uzor	91,6	104,7	65,0	109,2	26,6	95,2
Dehqonobod	51,5	103,6	11,5	105,9	40,0	102,8
Qamashi	118,3	104,4	56,7	108,4	61,6	101,0
Qarshi	29,8	113,1	-	-	29,8	116,9
Koson	55,8	111,8	14,2	105,0	41,6	114,4
Kitob	115,8	104,9	78,6	105,4	37,2	104,2
Mirishkor	11,7	104,6	10,3	106,8	1,4	84,2
Muborak	73,9	104,1	46,8	108,8	27,1	97,0
Nishon	85,8	103,8	27,5	107,4	58,3	102,1
Kasbi	46,9	104,6	11,2	107,5	35,7	103,6
Ko'kdala	87,7	100,2	35,6	-	52,1	-
Chiroqchi	573,6	103,4	200,2	107,8	373,4	81,7
Shahrisabz	53,2	104,2	26,8	102,9	26,4	105,4
Yakkabog'	88,0	103,8	88,0	105,4	-	-

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **843,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm, yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**465,9** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		mlrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>465,9</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>146,0</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>35,5</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>59,3</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yong'och, bodom, pista va boshqalar)	<b>22,1</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (pishloq, brinza va boshqalar)	<b>22,6</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>19,7</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>8,4</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>43,6</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>17,1</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>3,5</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>-</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **811,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **560,0** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **213,8** mlrd. so‘mni, otlar – **32,8** mlrd. so‘mni, parrandalar – **4,6** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		mlrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	354,6
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	160,9
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	44,5
	Qo‘ylar	124,0
	Otlar	32,8
	Echkilar	89,9
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	2,8
	Tovuqlar	1,8
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1482 tani tashkil etib, 2022- yil 1- sentabr holatiga nisbatan 283 taga kamaygan va o'sish sur'ati 84,0 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1481 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,6 %** ni tashkil etib, **318,4** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **104,2 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **96,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>318,4</b>	<b>104,2</b>	<b>10,1</b>	<b>57,7</b>	<b>229,3</b>	<b>107,8</b>
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	130,1	103,2	9,2	55,7	106,9	111,3
Shahrisabz	37,3	104,6	-	-	34,5	105,4
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	25,6	102,9	0,9	92,0	23,0	103,7
Dehqonobod	3,9	100,4	-	-	2,8	101,9
Qamashi	4,5	105,3	-	-	2,6	108,0
Qarshi	11,9	100,5	-	-	11,2	100,7
Koson	8,9	104,2	-	-	4,0	109,5
Kitob	19,5	108,1	-	-	7,0	103,3
Mirishkor	2,7	97,3	-	-	1,0	101,8
Muborak	18,8	100,0	-	-	15,9	100,6
Nishon	5,0	104,5	-	-	3,0	110,7
Kasbi	4,2	106,4	-	-	3,7	107,8
Ko'kdala	3,9	-	-	-	0,7	-
Chiroqchi	20,0	100,3	-	-	4,4	108,3
Shahrisabz	3,3	107,8	-	-	2,9	108,8
Yakkabog'	18,8	99,2	-	-	5,7	104,9

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- avgust holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2061,7** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **117,3** % o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **937,4** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **63,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **1124,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **399,6** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, Foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>2061,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	1885,2	91,4
Shahrisabz	5,8	0,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1,8	0,1
Dehqonobod	2,7	0,1
Qamashi	0,7	0,1
Qarshi	101,2	4,9
Koson	5,6	0,3
Kitob	13,2	0,6
Mirishkor	4,5	0,2
Muborak	3,5	0,2
Nishon	4,2	0,2
Kasbi	0,8	0,1
Ko'kdala	1,3	0,1
Chiroqchi	17,4	0,8
Shahrisabz	0,4	-
Yakkabog'	13,4	0,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi shahri ( **1885,2** mlrd. so'm), Qarshi (**101,2** mlrd. so'm) va Chiroqchi (**17,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda**



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3805,2** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **104,2 %** ga ko‘paydi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **3328,4** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **110,4 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **87,5 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Kasbi tumani (**131,3%**) da kuzatildi.

2023- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2207** tani tashkil etib, 2022- yil 1- sentabr holatiga nisbatan **83** taga kamaygan, yoki **96,4 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **14** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2193** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>3805,2</b>	<b>104,2</b>	<b>476,8</b>	<b>75,2</b>	<b>3328,4</b>	<b>110,4</b>
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	1 620,7	107,6	228,2	83,9	1392,5	112,8
Shahrisabz	347,0	113,4	-	-	347,0	113,4
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	114,1	108,8	-	-	114,1	108,8
Dehqonobod	32,8	102,4	-	-	32,8	102,4
Qamashi	77,0	103,3	-	-	77,0	103,3
Qarshi	330,0	106,3	73,2	106,8	256,9	106,2
Koson	337,7	85,7	50,9	40,2	286,7	107,4
Kitob	210,3	106,8	-	-	210,3	106,8
Mirishkor	111,7	90,3	-	-	111,7	110,7
Muborak	60,4	97,0	2,7	35,2	57,7	105,7
Nishon	68,6	104,2	-	-	68,6	104,2
Kasbi	144,8	131,3	121,4	136,5	23,4	109,3
Ko'kdala	47,5	102,4	-	-	47,5	102,4
Chiroqchi	130,0	81,6	-	-	130,0	116,0
Shahrisabz	91,6	109,3	0,4	-	91,2	108,8
Yakkabog'	81,0	110,1	-	-	81,0	110,1



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. (75) 221-44-28**